

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 224 (1285), 2024-yil 5-noyabr, seshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz



## IQTISODIYOTIMIZ TAYANCHI — TADBIRKORLARNING HUQUQIY MANFAATLARI ISHONCHLI VA ADOLATLI HIMOYA QILINADI

**Prezident Shavkat Mirziyoyev 4-noyabr kuni tadbirkorlarning huquqiy himoyasini kuchaytirishga oid takliflar taqdimoti bilan tanishdi.**

Mamlakatimizda tadbirkorlarga iqtisodiyotning tayanchi sifatida qaralib, biznes muhiti tobora qulaylashtirib borilmoqda. Mahalladagi yakka tadbirkorlikdan tortib, yirik loyihalargacha qo‘llab-quvvatlanmoqda. Natijada biznesga qiziqish va undan manfaatdorlik oshib bormoqda.

Buning bosh omili hayot talabidan kelib chiqib, tadbirkorlarning o‘z takliflari asosida ish tutilayotganidir.

An‘anadagidek, bu yil ham 20-avgust kuni davlatimiz rahbari tadbirkorlar bilan ochiq muloqot qildi. Unda aytilgan muammo va fikrlar asosida tadbirkorlarning huquqiy himoyasini kuchaytirish, tekshiruvlarni tartibga solishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqildi.

Unga ko‘ra, 2025-yil 1-yanvardan boshlab bitta huquqbuzarlik uchun bitta javobgarlik chorasini belgilash nazarda tutilmoqda. Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tmasdan amalga oshirganlik uchun moliyaviy jarima bekor qilinmoqda.

Shuningdek, raqamli markirovkalash qoidalarini hamda fiskal belgilarni aks ettirish tartibini buzish, xodimlar sonini yashirish uchun ma‘muriy javobgarlik bekor qilinadi.

Nizolar hal qilinishini yengillatish maqsadida 2025-yil 1-martdan sudda ish yuritish taraflar kelishuvi bilan tugatilganda davlat bo‘jining bir qismini qaytarib berish tartibi joriy etiladi.

Tadbirkorlar faoliyatini nazorat qilishga vakolatli organlar va ularning nazorat sohalari ro‘yxati tasdiqlanadi. Bunda ro‘yxatda yo‘q masalalar bo‘yicha tadbirkorlar faoliyatini tekshirish taqiqlanadi. Tadbirkorlar faoliyatida o‘tkaziladigan barcha tekshiruvlar “Yagona davlat nazorati” axborot tizimi orqali xabardor etish tartibida amalga oshiriladi.

2025-yil 1-yanvardan boshlab tekshiruvlar “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimi doirasida tadbirkorlarni 3 ta toifaga ajratgan holda o‘tkaziladi.

Taqdimotda, shuningdek, tadbirkorlar faoliyatida noqonuniy tekshiruvlarning oldini olish, nazorat organlarining tekshiruvchi xodimlari malakasini oshirish bo‘yicha ham fikrlar bildirildi.

Davlatimiz rahbari bu choralarni huquqiy jihatdan takomillashtirish, amaliyotda adolati qo‘llanishini ta‘minlash bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

O‘ZA

## ENERGETIKA KORXONALARI TRANSFORMATSIYASI ZAMONAVIY BOSHQARUV TIZIMINI JORIY ETISHNING MUHIM OMILI

**Prezident Shavkat Mirziyoyev 4-noyabr kuni elektr energetikasi sohasini transformatsiya qilish, hududlardagi elektr tarmoqlari boshqaruviga xususiy operatorlarni jalb qilish masalalari bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazdi.**

Bu sohani hayot talabiga mos ravishda rivojlantirish choralarini ko‘rilmoqda. Elektr energiyasi ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash jarayonlari alohida kompaniyalarga ajratilib, investitsiya uchun imkoniyatlar yaratildi. Oxirgi besh yilda elektr energiyasi ishlab chiqarishga 4 milliard 300 million dollar investitsiya kirib keldi, 5,7 gigavatt yangi quvvatlar yaratildi.

Tarmoqdagi 4 ta korxonaga — “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari”, “Hududiy elektr tarmoqlari”, “Issiqlik elektr stansiyalari” hamda “O‘zbekgidroenergo” aksiyadorlik jamiyatlari xalqaro kredit reytingini olishga erishdi. Endigi qadam — transformatsiya orqali raqobatbardosh kompaniyalarga aylanish. Bu elektrni iste‘molchilarga kafolati yetkazib berish uchun ham, investitsiyalarni mustaqil jalb etish uchun ham asosiy omil.

Yig‘ilishda shu boradagi chora-tadbirlar muhokama qilindi. Har bir energetika korxonasining birinchi galdagi vazifasi tannarxni kamaytirish ekanini ta‘kidlandi. Bunga loyihalarni maqbullashtirish, yo‘qotishlarni kamaytirish va xaridlarni

takomillashtirish orqali erishish mumkinligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Taqsimlash tarmoqlarini xususiy sheriklik asosida investorlarga berib, ularni modernizatsiya qilishga 4 milliard dollar investitsiya jalb qilish mumkin. Shu maqsadda kelgusi yilda Samarqand, Jizzax va Sirdaryodagi tarmoqlar boshqaruviga xususiy operatorlarni jalb etish rejalashtirilmoqda.

O‘tgan yili qabul qilingan energetikada raqobat bozorini tashkil etish konsepsiyasi doirasida tarmoq korxonalarini transformatsiyasini tezlashtirish, ularni zamonaviy boshqaruv tizimini joriy etish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Kelgusi yil energetika korxonalarini uchun tejamkorlik va samaradorlik yili bo‘lishi qat‘iy belgilandi. Tarmoq kompaniyalarini quyi bo‘g‘ingacha transformatsiya qilish va raqamlashtirish vazifasi qo‘yildi.

Mutasaddilar ushbu korxonalarda xarajatlarni samarali boshqarish bo‘yicha rejalarni bayon qildi.

O‘ZA



## MUHIM O‘ZGARISHLAR VA TARAQQIYOTNING YANGI DAVRI

### Navoiyning ertangi istiqboliga daxldor vazifalar belgilab olindi



**O‘tgan haftada Prezidentimiz joylarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, yirik sanoat loyihalari, yangi korxonalar va ta‘lim maskanlari faoliyati bilan tanishish maqsadida Navoiy viloyatiga tashrif buyurdi. Tashrif davomida davlatimiz rahbari viloyat faollari bilan uchrashib, hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha kelgusi ustuvor vazifalarni belgilab berdi. Safar chog‘ida Prezidentimiz bildirgan tashabbuslar va ilgari surgan takliflar viloyat faollari tomonidan iliq kutib olindi.**

Davomi 3-betda

# 6,6 FOIZ O‘SISH

Tahlil va taqqos

## BUNING ZAMIRIDA NIMALAR MUJASSAM?

Joriy yil 17-oktabrda davlatimiz rahbari huzurida 2024-yilda iqtisodiyotda kutilayotgan natijalar va 2025-yil uchun mo‘ljallangan asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar muhokamasini yuzasidan yig‘ilish bo‘lib o‘tdi. Jahondagi qiyin vaziyatga qaramay, ichki imkoniyatlarni ishga solish hisobiga o‘tgan 9 oyda mamlakatimiz iqtisodiyoti 6,6 foiz, sanoati 7 foiz o‘tdi. Yil yakunigacha kamida 6 foiz o‘shish kutilmoqda.

Jahonning ko‘plab nufuzli reyting agentliklari ham O‘zbekistonning reytingi barqaror saqlanib qolayotganini ijobiy baholayapti. Tashqi investorlar ishonchi ortgani tufayli xalqaro bozorlarda 4 milliard dollarlik yevrobond joylashtirildi. Natijada joriy yilda investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 33 foizdan oshadi.

Asosiy soliqstavkalarini o‘zgarishsiz qolayotgan holatda budget daromadlarini ko‘paytirishning birdan bir yo‘li soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish ekanini qayd etildi. Davlatimiz rahbari bu tadbirkorlar faoliyatiga aralashish orqali emas, balki raqamlashtirish, sun‘iy intellekt va yashirin iqtisodiyotni “soya”dan chiqarish hisobiga bo‘lishi kerakligini ta‘kidlandi.

Yig‘ilishda 2025-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy rejalar ham ko‘rib chiqildi. Kelgusi yilda yalpi ichki mahsulot o‘shishini saqlab qolish

uchun barcha imkoniyat borligi aytiladi. Buning uchun rejalashtirilgan loyihalarni o‘z vaqtida ishga tushirish, transport-logistika, axborot texnologiyalari, agro va moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish talab etiladi. Bular o‘z-o‘zidan bo‘lib qolayotgan yoki bo‘lib qoladigan ishlar emas. Buning zamirida puxta o‘ylangan reja va islohotlar mujassam. Binobarin, so‘nggi yillarda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilash, yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini qo‘llab-quvvatlash, iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhiti shakllantirish, ichki va tashqi bozordagi milliy tovarlar raqobatbardoshligini ta‘minlashga katta e‘tibor qaratilmoqda. Iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, eksport tarkibi va geografiasini kengaytirishga ustuvor vazifalar sifatida qaratilmoqda.



Davomi 4-betda

## Sidqiy Xondayliqiy tavalludining 140 yilligiga

# MILLAT UCHUN JONFIDOLIK QILGAN BUTUN ODAM

# 6

## RADARLAR QAYD ETGAN QOIDABUZARLIK UCHUN 48 SOATLIK MUDDAT

**Qoidabuzarlik haqida shu muddatda Yo‘l harakati xavfsizligi xizmatiga ma‘lumot yuborilmasa, haydovchi ma‘muriy javobgarlikka tortilmaydi. Qonunchiligimizdagi bu kabi yangiliklar yo‘llarda harakatlanish xavfsizligini ta‘minlashda qanday samara beradi?**

Erta tongda o‘qish, ish yoki boshqa biror yumush bilan uydan ko‘chaga chiqar ekanimiz, shu lahzadan boshlab har birimiz yo‘l harakati ishtirokchisiga aylanamiz. Bu jarayonda yo‘l harakati qoidalariga qat‘iy amal qilish xavfsizlikning muhim omilidir. Albatta, ko‘zlangan manzilga tez va oson yetib olishimiz uchun, avvalo, yo‘llarda yaratilgan sharoitlar ham muhim. Keyingi yillarda yurtimizda bu sohaga e‘tibor tobora kuchayib, huquqiy va tashkiliy ishlar ko‘lami kengayotgani sharoitlarni yaxshilashga asos bo‘layotir.

Davomi 4-betda



# KO'HNA MASKANNING O'ZGACHA QIYOFASI

## SO'XDAGI ULKAN YANGILANISH VA BUNYODKORLIKLAR

So'x har qanday odamni maftun etadi. Oloy tizmasining Qatrontog', Obishir, Lazar tog' yonbag'rida joylashgan bu maskanning zilol buloqlari, jo'shqin soylari, ko'kka talpingan archalari va betakror tabiati yorqin taassurot qoldiradi. Kamtar, sodda, samimiy, mehmondo'st odamlar qo'nim topgan va ajib go'shada 83 mingdan ortiq yurtdoshimiz umrguzaronlik qilib keladi.

Bir paytlar So'x e'tibordan chetda edi. Tumanni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi turmush tarzini yaxshilash, farovonligini oshirish, xomashyo zaxiralardan samarali foydalanish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash orqali odamlar bandligini ta'minlash ishlari o'ldajo'lda qolib ketdi. O'tgan asrning 80-yillarida qurilgan va tumanda yagona bo'lgan poyabzal fabrikasi faoliyati to'xtab qoldi.

Qo'shni Qirg'iziston va Tojikiston bilan bog'lovchi infratuzilma tarmoqlarida o'ziga xos qiyinchiliklar bo'y ko'rsatdi. Bu yerga kelish, undan chiqish uchun chegara postlaridan o'tish, pasport nazorati bilan bog'liq ishlar ko'plab noqulayliklar keltirib chiqargani bor gap. Farg'ona yoki shundoq qo'shni Rishton tumaniga borish uchun yuzlab chaqirim yo'l bosilardi.

Prezidentimizning "2020-2021-yillarda Farg'ona viloyatining So'x tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori olis maskanda yangi hayot eshiklarini ochdi.

Bugun qo'shni davlat chegarasidan o'tib, So'x tumaniga qadam qo'ygan kishi ulkan bunyodkorlik va yangilanishlar guvohi bo'ladi. Ravon yo'llar, zamonaviy uy-joy, ishlab chiqarish korxonalari, elektr, ichimlik suv bilan bog'liq hayotiy masalalarga yechim topildi. Aholini ish bilan ta'minlash, ta'lim, tibbiyot, qo'yngki, barcha sohada hayotbaxsh ishlohtlar amalga oshirildi, oshirilyapti.

— Tumanimizdagi muammolar kecha yoki bugun paydo bo'lib qolgan yo'q. U yillar davomida yechimini kutib turgandi, — deydi So'x tumani hokimi Sayidbahrom Sayidmusayev. — Turli vazirlik vakillari, sektor rahbarlari, faollar bilan har bir mahalla va oilalar hayot tarzini o'rganish yuzasidan ishlab chiqilgan amaliy chora-tadbirlar natijasida barcha muammoga yechim topildi. Keyingi yillarda to'g'ri mahallilik, oziq-ovqat mahsulotlari, qurilish materiallari ishlab chiqarish, meva yetishtirish, qayta ishlash yo'nalishlari rivojlanmoqda. Tumanimizda salohiyatli tadbirkorlar ko'p, imkoniyat ham, sharoit ham keragidan ortiq. Investitsiya jalb etish, ishlab chiqarish, ish o'rni ochish va eksportni ikki barobar oshirish imkoniyatiga egamiz. Bu ishlarni bajarish uchun hududni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish bo'yicha alohida dastur ishlab chiqildi. Xususan, baliqchilikni rivojlantirish maqsadida So'x daryosi qirg'oqlaridan foydalana boshladik. Suv havzalari tashkil qilish orqali 60 tonna baliq yetishtirish, yangi o'zlashtirilayotgan Qayroq massividan 200 gektar yerni ajratib olib,



birinchi bosqichda 80 gektarda kooperatsiya usulida malinchilik plantatsiyalari barpo etish va ijtimoiy ko'makka muhojir oilalarga bo'lib berish choralarini ko'riyapti.

Javpaya massivida o'zlashtirilgan 60 gektar yerda dorivor o'simlik va 100 ming tup tut ko'chati ekilgan plantatsiya tashkil etilmoqda. Bu tumanimizda sanoat pillachiligini rivojlantirish, yiliga 3-4 martagacha pilla hosili terib olish imkonini beradi. Bugun sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish yo'nalishida 200 ga yaqin korxonada faoliyat yuritmoqda. Joriy yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish qiymati 147,4 milliard so'mga yetkazildi. Bu avvalgi yillarga qiyoslaganda 1,8 barobar ko'p. Hozirgi murakkab sharoitda jahon bozoriga yangi yo'l ochish, investitsiya olib kelishga e'tibor oshdi. 2024-2025-yillarda umumiy qiymati 46,6 million dollar bo'lgan 8 ta loyiha shakllantirildi. Bugungacha 23,6 million dollar miqdorida to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirildi. Travertin va gips konlarini o'zlashtirish hisobiga sanoatga qo'shimcha qiymat kiritilib, ko'plab yangi ish o'rinlari ochilyapti.

So'xda yetishtirilib, qayta ishlanayotgan sarxil meva-sabzavot va sanoat mahsulotlari allaqachon mamlakat va yaqin davlatlarda xaridorini topib ulgurdi. "Arslon ekspress invest" MCHJda qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmi ikki barobar ko'payib, qo'shimcha 100 ta ish o'rni ochildi. "So'x Shafran eksport" ishlab chiqarish kooperativi tashabbusi bilan za'faron dorivor mahsulotlarini yetishtirish va qadoqlash yo'lga qo'yildi. "Devayron" mahalla fuqarolar yig'inida ish boshlagan tikuvchilik korxonasi mahallalardagi ishsiz o'tirgan 100 ga yaqin xotin-qizning bandligini ta'minladi.

— Mahalliy xomashyodan bolalar va kattalar mavsumiy trikotaj mahsulotlari ishlab chiqaryapmiz, — deydi "Avilon So'x" MCHJ ish yurituvchisi Flyura Bo'tayeva. — Mahsulotlarimiz ichki bozordan tashqari Rossiya va Ozarbayjonga eksport qilinmoqda. Yil oxiriga qadar eksport qiymatini bir million dollarga yetkazamiz. Korxonada huzurida qisqa muddatli o'quv kursi ham ochganmiz. Tikuvchilikka qiziqqanlarning shu kurslarda nazariy va amaliy bilim olishi uchun kerakli sharoit yaratilgan.

### Tog'larga bo'ylashgan binolar

So'xdagi ulkan yangilanish va bunyodkorliklar haqida gap ketganda, albatta, aholini uy-joy bilan ta'minlash borasida qilingan ishlarga to'xtalmay ilojimiz yo'q. Hozirgacha bu yerda birorta ko'p qavatli uy-joy qurilmagan. Ayni kunda "Arslon Ekspress invest" MCHJ tashabbusi bilan "Navobod" mahalla fuqarolar yig'inida yana 3 ta 7 qavatli uy-joy, savdo va tibbiy xizmat ko'rsatish tarmoqlari jadal qurilmoqda.

— Yil yakuni bilan kambag'allik darajasini 13,3 foizdan 11,1 foizga (yil boshiga nisbatan 2,1 foizga), ishsizlik darajasini 4,4 foizga tushirish bo'yicha amaliy ishlar qilinmoqda, — deydi So'x tumani kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish

emin-erkin yashayapmiz. Uymizga tutash hududlarda bolalar maydonchalari, savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalari faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Ayni kunda "Arslon Ekspress invest" MCHJ tashabbusi bilan "Navobod" mahalla fuqarolar yig'inida yana 3 ta 7 qavatli uy-joy, savdo va tibbiy xizmat ko'rsatish tarmoqlari jadal qurilmoqda.

### Ishsizlikdan xoli hudud

Tumandagi katta muammolardan biri ishsizlik edi. O'tgan qisqa muddatda bu yo'nalishda ko'plab loyihalar amalga oshirildi. Asosiy e'tibor aholi bandligini ta'minlash va daromad topishiga ko'maklashishga qaratildi.



So'x tumani ishsizlikdan xoli hududga aylantirish maqsadida yil yakuniga qadar 9 mingdan ortiq doimiy, mavsumiy hamda vaqtinchalik ish bilan aholi bandligini ta'minlash dasturi ishlab chiqildi. Bu yo'nalishda xorijiy investitsiya, mahalliy sanoat, xizmat ko'rsatish, tadbirkorlik, qishloq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlantirishga

bo'limi rahbari Qosimjon Haydarov. — Shu kungacha Sayxunobod va Uychi tumanlari tajribasi asosida har bir mahalladan 50 ta — jami 1350 ta xonadon tanlab olindi. Bunda asosiy e'tibor og'ir toifadagi (daromadi 1 million so'mdan kam), ishlashga ishtiyoqli bor 151 xonadonga qaratildi. Ularga issiqxonada, chorvachilik, parrandachilik va asarlichilik

— Yil yakuni bilan kambag'allik darajasini 13,3 foizdan 11,1 foizga (yil boshiga nisbatan 2,1 foizga), ishsizlik darajasini 4,4 foizga tushirish bo'yicha amaliy ishlar qilinmoqda, — deydi So'x tumani kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish

yo'nalishida amaliy ko'mak berildi. Buning hisobiga 530 kishining daromadli mehnat bilan bandligi ta'minlandi. Kelgusida ularning tomorqadan oloyotgan daromadi 60-70 million so'mga, jon boshiga oyiga o'rtacha 1,5-2 million so'mga yetkaziladi. Bundan tashqari, tadbirkorlik qilish istagidagilarga 13,2 milliard so'm, ishsiz, ijtimoiy daftarlarga kiritilgan fuqarolarga 900 million so'm subsidiya ajratiladi.

### Tibbiyot turizmi rivojlanmoqda

So'x tumanida tibbiyot turizmiga e'tibor qaratilmoqda. Bu bejiz emas. Musaffo ob-havo, qulay ijtimoiy muhit, qo'shni mamlakatlar bilan borib kelishda yo'lga qo'yilgan yangi tartib-tamoyil, imtiyoz va imkoniyatlar mahalliy va xorijiy sayyohlarning bu maskanga qiziqishini oshirayotgani tabiiy.

Tahsilarga ko'ra, 2022-2023-yillarda tumanda umumiy qiymati 2,1 million dollarlik 11 ta tibbiy xizmat ko'rsatish loyihasi ishga tushirildi. Bu naqafat so'x'lik, balki qo'shni mamlakat fuqarolariga ham malakali tibbiy xizmat ko'rsatish imkoniyatini bermoqda. — Joriy yilning o'tgan olti oyida qirg'izistonlik 816 fuqaroga tibbiy xizmat ko'rsatdik, — deydi "Sabrina Nevromed" xususiy klinikasi rahbari Solijon Musayev. — Bu yerda zamonaviy diagnostika, davolash, jarrohlik amaliyoti bilan bog'liq barcha shart-sharoit yaratilgan. Ayni kunda tibbiy xizmat turlarini ko'paytirish, sifatini yanada yaxshilash bo'yicha ishlayapmiz. Shu maqsadda yangi tibbiy jihozlar olib kelish, shifokorlar malakasi va mahoratini oshirish, ilg'or ish tajriba va amaliyotini shu yerda omalashtirishga e'tibor beryapmiz.

— Qirg'izistonning Haydarkon qishlog'idan keldim, — deydi Muhiddin Matisoqov. — Bo'g'inlarim og'rigani bois, tez-tez shifokorlarga murojaat qilib turaman. Bizga yaqin qo'shni hududda zamonaviy tibbiy xizmat turlari va sifati yaxshilangani uzog'imizni yaqin, og'irimizni yengil qilyapti. Bu yerga kelib davolanish har jihatdan qulay. Avvalo, yashash joyimizga yaqin. Qolaversa, malakali tibbiy xizmat, toza havo sog'lig'imizni tiklashda har jihatdan ko'mak bermoqda. Avvallari bunday imkoniyat yo'q edi. Davolanish uchun uzoq yo'l bosib, tuman va viloyat markazlariga borishga majbur edik. Ayniqsa, qorli-qirovli kunlarda tog' yo'llarida harakatlanish noqulay edi. Endi bu qiyinchiliklar ortda qoldi.

Aholi hayot tarzi, farovonligi uchun muhim shart-sharoitlar yaratish borasida bundan to'rt yil avval boshlangan ishlohtlar samara beryapti. Yangi uy-joylar, sanoat, ijtimoiy soha obyektlari, yoshlarga kasb-hunar o'rgatish, aholi bandligini ta'minlash, malakali tibbiy xizmat yo'nalishlari ko'hna maskanga yangi hayot tarzini olib kirdi. Bularning barchasi olis tog' qishloqlarida yangi O'zbekistonning yangi tamadduni yuz ochganidan dalolat berib turibdi.

Rasuljon KAMOLOV,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

### Islahotlar amalda

Ko'pchilikka oson ko'rinadigan savdo-sotiqning o'zi bo'lmaydi. Qaysidir hududdan sifati, iloji boricha arzon tovar topib kelib, uni pullash uchun kishidan anchagina mahorat talab etiladi. Sohada uddaburon bo'lmasa, hisob-kitobni yaxshi yuritmasa, ishi uzoqqa bormasligi aniq.

Abbos ancha o'ylab, do'kon ochdi. Ammo shu yaqin atrofdan ulgurji xarid qilgan mollariga talab unchalik yuqori emasdi. Bundan tashqari, ulgurji degani deyarli bozordan farq qilmas, biror so'm orttirish mushkul edi. Yosh bo'lsa-da, izlanishdan to'xtamadi. Boshqalardan maslahat so'radi. Tajribali savdo xodimlari yo'l-yo'riq ko'rsatdi. Toshkent shahriga, aynan u izlagan tovarning ulgurji bozoriga borib, arzon narxlarda mahsulot olib keladigan bo'ldi. Endi savdosini yuritishi. Sifatli kiyim sotgani bois, xaridori o'zi izlab keladigan bo'ldi.

Savdo yaxshilanib, Abbas o'zini ancha og'lab olganidan keyin nima bo'ldi-yu, u sotadigan mol topilmay qoldi. Surishtirsa, o'sha mahsulot keladigan davlat bilan savdo yo'llari yopiladi. Qachon ochilishi noma'lum. Bu yoqda do'kon deyarli bo'shab borardi.

## "XORIJDAN MAHSULOT KELISHINI KUTMAYMIZ, O'ZIMIZ ISHLAB CHIQAAMIZ"

— Nima qilishimizni bilmay qoldik, — deydi Koston tumanidagi yosh tadbirkor Abbas Rahmonov. — Xaridorlarimiz har kuni so'rab kelar, lekin mahsulot yo'qligidan tayinli javob berolmasdik. Eng ajablanarlisi, o'sha paytlarda aynan erkaklar bosh kiyimini ishlab chiqarish bilan yurtimezning deyarli biror hududida hech bir tadbirkor shug'ullanmas ekan. Qanchalik izlamaylik, ilojini qilolmadik. Oxiri shuni o'zimizda ishlab chiqarish yo'lga qo'ysak, nima bo'larkan, degan savol paydo bo'ldi. Loyiha ishlab chiqish harakatiga tushdim. Xorijda ham menga o'xshagan odamlar shuni tayyorlamogda-ku, nahotki men eplolmasam, deya o'rganishga kirishdim. Ancha paytgacha aynan bosh kiyim savdosi bilan shug'ullanganim bois, bir oz tajribam bor edi. Shu sabab internet orqali xorijdagi ishlab chiqarish bilan muloqot qildim. Xitoylik mutaxassislar bilan aloqa o'rnatib, uskunalarini topdim. So'ng imtiyozli kredit olib, chetdan kerakli jihozlarni keltirdim. Tikuv mashinalari xarid qildim. Asta-sekin ishga kirishdim.



Oilaviy korxonada tashkil etib, to'rt kishi bilan ish boshlagan yosh tadbirkor dastlab qiymatli. Ko'pchilik buni eplab ketishiga

— Oldin ishsizligim bois, mahallamizda "Yoshlar daftari" da ro'yxatga olingandim, — deydi Zilola Berdiyeva. — Yoshlar yetakchisi tavsiyasi asosida bu yerga ishga qabul qilishdi. Sexda ish boshlaganimga bir yarim yil bo'ldi. Ikki million so'mdan ortiq maosh olaman. Ishchilar uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Yashash joyimizga yaqinligi ham menga ancha qulay.

ishonmasdi. Ba'zilar yosh yigitni bu yo'ldan qaytarmoqchi ham bo'ldi. Shunday bo'lsa-da, u yengil maosh olg'ani intildi.

Yangi yo'nalish bo'lgani bois, sohada tajriba yetishmasdi. Tikuvchilar ko'p bo'lgani bilan biror kishi aynan zamonaviy bosh kiyim tikishini bilmasdi. Shunda u yana internet orqali mutaxassislariga murojaat qilib, o'rganishga intildi. Izlandi, bilmaganini so'radi, maslahat soldi, nihoyat yo'nalishga tushib oldi.

— Qachon xorijdan mahsulot kelarkan, deya termilib o'tiradigan vaqtlar bugun ortda qoldi, — deydi Abbas. — Aslida, kishi biror ishni bajarishni astoydil xohlarsa, buning uddasidan chiqishi aniq. Boshida o'ziga yarasha qiyinchiliklar bo'ldi, lekin to'xtatishni xayolimga ham keltirmadim. Muhimi, aynan men kabi yosh tadbirkorlar qo'llab-quvvatlanayotgani katta kuch berdi. Bir necha bor imtiyozli kredit oldim. Bugun xonadonimda tikuv sexi ochganman. Hozir qishki mavsumga mo'ljallan bosh kiyim tikilmoqda. Har faslga qarab xaridorlarning talabi bo'yicha mahsulotlar tayyorlab beramiz. Ayni paytda kuniga 600-700 dona tayyor mahsulot tikib, asosan, Toshkent va Samarqand shahri bozorlariga yetkazib

berypapmiz. Mamlakat bo'ylab mahsulotimizni sotib oluvchilar anchagina.

Abbos Rahmonov oilaviy korxonasida ilk bor to'rt kishi ish boshlagan bo'lsa, bugun ular safi ellik nafarga yetgan. Sexda mehnat qiluvchi yaqin atrofdagi xotin-qizlar, asosan, "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" va "Temir daftar" da ro'yxatda turuvchilar.

— Oldin ishsizligim bois, mahallamizda "Yoshlar daftari" da ro'yxatga olingandim, — deydi Zilola Berdiyeva. — Yoshlar yetakchisi tavsiyasi asosida bu yerga ishga qabul qilishdi. Sexda ish boshlaganimga bir yarim yil bo'ldi. Ikki million so'mdan ortiq maosh olaman. Ishchilar uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Yashash joyimizga yaqinligi ham menga ancha qulay.

Oilaviy korxonada tikilayotgan bosh kiyimlar xorijikidan qilib qilinmaydi. Yana bir muhim jihati, mahsulotlar maxsus brend ostida savdogaga chiqarilmoqda. Hozir oyiga o'rtacha ellik million so'mga yaqin sof daromad oloyotgan yosh tadbirkor yangi loyihalar ustida ishlaymoqda. Uning aytishicha, qo'shni mahalladan yaqinda sotib olgan joyida yangi ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishni maqsad qilgan. Kelgusi yilda yana qo'shimcha kamida oltiz kishiga ish o'rni ochiladi. Bundan tashqari, import o'rini bosuvchi ayrim mahsulotlar shu yerning o'zida tayyorlanib, ichki bozorni arzon va sifatli tovar bilan to'ldirishga zamin yaratiladi.

Akbar RAHMONOV,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



# MUHM O'ZGARISHLAR VA TARAQQIYOTNING yangi davri

## Navoiyning ertangi istiqboliga daxldor vazifalar belgilab olindi

Boshlanishi 1-betda

Ramazon EGAMOV, olim:

— “Yangi O'zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi” tamoyilining hayotiy ifodasi, nazariyda, Navoiy viloyati misolida yorqin aks etmoqda. Prezidentimizning viloyatimizga tashrif davomida bu alohida e'tirof etildi. Albatta, navoiylik yoshlar oliy ta'lim muassasalariga kirish ko'rsatkichlari bo'yicha respublikada peshqadam ekanini bejiz emas. Davlat dasturi asosida aniq fanlarga yo'naltirilgan maktablar faoliyati, mutlaq zamonaviy maktablar barpo etilayotgani, yuqori malakali o'qituvchilar tanlov asosida ishga qabul qilinayotgani ta'lim sifatini yanada yuksaltirmoqda.

Davlatimiz rahbari tashrif chog'ida ustozlar va yoshlar bilan muloqot qilgan ekan, ta'lim jarayonining muhim bo'g'ini bo'lgan to'garaklar, xususan, musiqa, rassomlik, hunarmandlik, sport, IT sohasiga doir amaliy mashg'ulotlar xonalaridagi shart-sharoitlarni ko'zdan kechirib, bunday imkoniyatlardan samarali foydalanayotgan yosh avlodning intilishlarini rag'batlantirib, ularga kerakli tavsiyalar hamda o'g'itlar berdi. Ayniqsa, she'riyatda iste'dodini namoyish etgan o'quvchi qiz misolida bir qator yoshlarga ularning oliy ta'lim talabasi bo'lishida alohida imtiyoz berilishi, nafaqat ular va otionalari, barchamiz uchun ham quvonchli bo'ldi.



Navoiy shahridagi 22-maktab saxovatpesha tadbirkor Abdulkarim Saksonov tomonidan bunyod etilgan. Bu tashabbusning davlat rahbari e'tirofiga sazovor bo'lgan alohida qayd etish lozim.



Saodat BOZOROVA, Xalq deputatlari Navoiy viloyati kengashi deputati, professor:

— O'zbekistonimizning bepoyon hududiga Navoiy nomi berilishi va bu tarixiy jarayonlar,

nazarimda, shu yerda tug'ilib, hayot kechiradigan bugungi va kelgusi avlodlar taqdiriga bitilgan ezgu bitiklarning a'loisi bo'lsa ajabmas! Davlatimiz rahbarining betakror vohamizga tashrif chog'ida bu haqiqat baralla yangragani qalblarimizda behad quvonch va iftixor hissi paydo qildi.

Prezidentimiz Navoiy viloyatiga tashrif davomida viloyatda 2025-yilni Alisher Navoiy yili deb e'lon qilish taklifini bildirishi va “Hazrat Navoiyni anglash — o'zligimizni anglash” mavzusida respublika tanlovi tashkil etilishi, har bir mahalla, maktab, oliygohlar va mehnat jamoalarida “Navoiyxonlik kechalari” o'tkazilishi bugungi avlodlar Navoiy ijodini teranroq anglashiga muhim turki beradi. Bundan tashqari, “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida viloyatimizning shahar va tumanlari, qishloqlarida Navoiy bobomizga atab yangi bog'lar, so'lim xiyobonlar, yashil hududlar tashkil etiladi.

Aslida, Navoiy viloyatida faoliyat yuritayotgan har bir inson, har bir rahbar Alisher Navoiy nomi bilan ataluvchi bu zamin mas'uliyatini chuqur his etgan holda, o'z dargohida adabiy muhit yaratma olsa, demakki, ko'zlangan barcha maqsadlarimizga erishgan bo'lamiz.

## Prezident tashrifidan so'ng

bu yerdagi ravon yo'llar, ko'rkam mahallalar, o'ziga xos me'moriy yechimga ega imoratlariga guvoh bo'ladi. Eng muhimi, tumanda zamonaviy sanoat komplekslari, ta'lim markazlari soni ham yildan yilga ko'payib, aholining yashash darajasi tobora yuksalib bormoqda. Navbahor tumanidagi politexnikum ayni shunday maskanlardan biri sanaladi. Prezidentimiz ushbu ta'lim maskanida bo'lib, faoliyatini e'tirof etdi va bu yo'nalishda zarur tavsiyalar berdi.

Umuman olganda, mazkur zamonaviy politexnikum sanoatga o'rta bo'g'in kadrlari yetishtirishda yurtimizda nomdor muassasalardan biriga aylinishi shubhasiz. O'quv maskani sanoatlashgan Navoiy viloyati hududidagi yirik korxonalar uchun raqobatbardosh, ishlab chiqarish ko'nikmalarini puxta egallagan kadrlar tayyorlab beradi. Kasbiy ta'lim bo'yicha bu dargohning “Navoiy tajribasi” sifatida e'tirof etilgani muhim ahamiyatga ega.

Bir so'z bilan aytganda, Prezidentimizning mazkur tarixiy tashrif navoiyliklar hayotida muhim o'zgarishlarni, xususan, viloyatimizning sanoat va ta'lim sohalaridagi katta mazzalarini belgilab berdi.

Shubhasiz, Navoiy yilida o'tkaziladigan barcha tadbirlar yoshlarning Navoiy ijodiga qiziqishini kuchaytiradi va milliy qadriyatlarimizni chuqur anglashiga turki beradi. Bu esa nafaqat tarixiy, balki ma'naviy, intellektual hamda bugungi global davrdagi juda muhim jihatlardan. Hazrat Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida bunday bayt bor:

Dedi: har ishki qilmish odamizod, Tafakkur birla bilmish odamizod...

Bugungi kunda Navoiy viloyatida amalga oshirilayotgan yirik sanoat loyihalari deysizmi, ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi sa'y-harakatlar haqida fikr yuritmasizmi, bunda, avvalo, yetuk tafakkur sohibi sifatida jahon bilan bo'yilashish, mavjud imkoniyatlarni to'la ishga solish kabi ulug'vor maqsadlar mujassam. Davlatimiz rahbarining Navoiy viloyatiga tashrif chog'ida 7 mingdan ortiq kishini ish bilan ta'minlovchi 15 ta yangi loyiha ish boshlagani mazkur jarayonlarning amaliy ifodasi bo'ldi.

Alisher Navoiy yili ham ma'naviy, ham iqtisodiy hayotimizning barcha jabhalarini qamrab olgan ana shunday keng ko'lami maqsadlarimiz ro'yobida yangi sahifalar ochib berishi shubhasiz.

Nazira TOG'AYEVA, O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi Navoiy viloyati kengashi raisi:

— Mamlakatimizning izchil taraqqiyoti, inson manfaatlari yo'lida kechayotgan keng ko'lami islohotlar samarasi Navoiy viloyatida ham o'z ifodasini topmoqda. Viloyat sanoat salohiyati yuqori hudud hisoblanadi. Iqtisodiy va investitsiyaviy imkoniyatlar tufayli so'nggi yillarda bu salohiyat yanada yuksalib boryapti. Viloyat ahli sanoat, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, qishloq xo'jaligi, qurilish, xizmat ko'rsatish sohalarida fidokorona mehnat qilib, vatanimizni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishga munosib hissa qo'shmoqda. Bu jarayonlarda esa O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi Navoiy viloyati kengashining ham amalga oshirayotgan chora-tadbirlari, tashabbus va takliflari muhim ahamiyat kasb etayotir.

Davlatimiz rahbari Navoiy viloyatiga tashrif chog'ida ulkan industriya loyihalari, yangi korxonalar va ta'lim maskanlari faoliyati bilan yaqindan tanishdi. Prezidentimiz Yangi Navoiy shaharchasi qurilish maydonida bo'lib, biz, nuroniyalar va ziyolilar bilan ham samimiy suhbatlashdi. Suhbat davomida viloyatdagi 8 ta tuman va 3 ta shaharning ertangi kuni qanday bo'ladi, degan savolga javob topish uchun kelgani, yildan yilga aholi soni o'sib borayotgan



Akrom MUQIMOV, Navoiy viloyati Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari:

— Agar yashash bilmoq, his qilmoq, dard chekmoq, sevmok, yonmoq, yaratmoq, huzur topmoq bo'lsa, bularning barchasini hazrat Alisher Navoiy asarlari orqali o'rganish mumkin.

Shu bois, xalqimiz Alisher Navoiyning boy va serqirra ijodiy merosini alohida qadrlaydi. Unda umuminsoniy g'oyalari, tilimizning beqiyos so'z boyligi va cheksiz ifoda imkoniyatlariga g'ozal ifodasini topgan.

Yangi Uyg'onish — Uchinchi Renessansning poydevorini yaratishga bel bog'langan bugungi kunda Alisher Navoiyning merosini chuqur o'rganmasdan ilgariylash ancha qiyin. Yig'ilishda Prezidentimiz Navoiy viloyati

umumta'lim maktablari qurilishi, 1620 o'ringa ega bog'chalar, poliklinika barpo etilishi, “Yangi O'zbekiston” bog'i, Navoiy davlat pedagogika instituti negizida Navoiy davlat universitetining tashkil etilishi barchamizni behad quvontirdi.

Prezidentimiz viloyatimizning salohiyati va yutuqlari bilan bir qatorda yechimini kutib turgan muammolar va foydalanilmagan imkoniyatlar haqida ham to'xtaldi. Mutasaddilarga chetga ishlashga ketgan odamlar bilan gaplashish, ularning oila a'zolaridan xabar olish, daromadini oshirish uchun sharoit yaratish to'g'risida. Xalqni rozi qilish, ish o'rinlarini yaratish, viloyatimizni kambag'allikdan xoli hududga aylantirish kabi vazifalarni tizimli davom ettirish bo'yicha ham aniq topshiriqlar berdi.

Umuman olganda, ushbu tashrif ma'naviy hayotimizda yangi islohotlar davrini boshlab berdi. Nuroniyalarimiz, ziyolilarimiz, kasaba uyushmasi a'zolarining, navoiylik yig'it-qizlarning, barcha bo'g'inda mehnat qilyotgan xodimlarining ancha vaqtdan buyon ko'nglida to'planib qolgan muammolarini hal etishga qaratilgan bilan nihoyatda ahamiyatli bo'ldi.

Ilgari surilgan amaliy tashabbuslar esa faqat birgina tizim yoki viloyat, sektor, tuman rahbarlariga tegishli emas. Bu barcha darajadagi rahbarlar, jumladan, O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi Navoiy viloyati kengashi zimmasiga ham katta mas'uliyat yuklaydi. Demak, belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta'minlashda yanada faol va tashabbuskor bo'lishimiz dardkor.

ma'naviy tarbiya, ma'rifiy yuksalish yo'lida barchaga o'rnak va namuna bo'lishi, ta'bir joiz bo'lsa, yurtimizning ma'naviy brendiga aylinishi zarurligini ta'kidlagani faqatgina ma'naviy-ma'rifiy soha vakillariga emas, balki barcha navoiyliklarga birdek sharafli mas'uliyat yuklaydi. Bu borada barcha soha vakillari, keksayu yosh bir bo'lib Navoiy viloyatini yurtimizning ma'naviy brendiga aylantirishga, albatta, o'z hissamizni qo'shamiz.

“Yangi O'zbekiston” muxbiri G'olib ABDUSALOMOV tayyorladi.

# ODDIY ISHLAB CHIQRUVCHIDAN

## YIRIK EKSPORTCHIGA AYLANGAN KORXONA



Odil OLIMJONOV, Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi bosh ilmiy xodimi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Boshlanishi 1-betda

Korxonada 2020-yili 16 ishchi-xodim ishlagan bo'lsa, 2024-yil 1-oktabrga kelib, umumiy qiymati 20 million dollarlik, 250 kishilik malakali jamoa shakllangan yirik majmuaga aylandi. Ishlab chiqarish qiymati bu yil 200 milliard so'mga yetadi.



Ishbilarmon faoliyati yo'nalishini o'zgartirishga qaror qildi. Metallurgiya va mashinasozlik sanoati korxonalarini uchun import o'rini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni niyat qildi. Lekin boshlanishi juda qiyin bo'ldi. Chunki mamlakatimizning yirik sanoat korxonalarini uchun zarur barcha asbob-uskuna va jihozlar xorijdan olib kelinardi. Masalan, tog'-kon sanoati, xususan, oltin qazishda ishlatiladigan filtrlovchi g'avliralar Angliyadan,

har xil turdagi aralashtrigichlar Germaniya va Finlyandiya, issiqlik elektr stansiyalarida foydalaniladigan issiqlik almashtrigichlari AQSH, Rossiya va Chexiyadan yuqori narxda import qilingan. Bu uskunalarini xorijdan sotib olishga juda katta miqdorda valyuta sarflanar, eng yomoni, mazkur korxonalarda bu mahsulotlarni o'zimiz ishlab chiqarolmaymiz, degan tushuncha hukmron edi.

Shuning uchun tadbirkorning bu boradagi dastlabki urinishlari ko'p qarshiliklarga duchor bo'ldi. Ammo yo'lidan qaytmadi. Nihoyat niyatiga yeta boshladi. U ishlab chiqarigan jihozlar, uskunalar, detallarning sifati xorijnikidan qolishmaydigan darajada ekanini e'tirof etilmog'ida.

Tadbirkorning bu muvaffaqiyatga erishishida tarmoqda har taraflama qo'llab-quvvatlash tizimi yaratilgani juda katta yordam berdi. Navoiy viloyatida joylashgan yirik sanoat korxonalarini, birinchi navbatda, Navoiy kon-metallurgiya kombinat rahbarlari va muhandis-texnik xodimlari bilan yaqindan muloqot qilib, jihozlarga texnik talab, xomashyo, ehtiyoj miqdori va sotib olish imkoniyatlarini chuqur o'rganildi. Ularning ro'yxati tuzildi. Kombinat rahbariyati va injenier-texnik xodimlari “NAVPROMLITMASH” MCHJga katta ko'mak berdi. Sanoatda yangi yo'nalishni

boshlab berayotgan korxonada jamoasi mahalliyashtiriladigan jihozlarni ishlab chiqarish uchun kerakli uskunalarini xorijdan olib keldi. Xomashyo o'zimizdan topildi. Korxonada mutaxassislari bilan hamkorlikda ularning ilk nusxalari ishlab chiqarildi.

— Bugun faxr bilan ayta olamanki, sanoat korxonalarini faoliyatini chuqur bilishim, ehtiyojlarini yaxshi o'rganim tufayli zavodimizda ilgari xorijdan import qilingan ko'plab mahsulot turarini o'zimiz ishlab chiqarishga erishdik. — deydi Ibrohim Fayziyev. — Eng muhimi, jamoamizda har qanday uskuna va detalni o'zimiz yasay olishimizga ishonch paydo bo'ldi.

Zavodda issiqlik almashtrigichlari ishlab chiqarish boshlagani viloyat sanoatida katta voqea bo'ldi. Bu nainki korxonada, balki butun hudud uchun juda katta yutuq edi. Chunki ular xorijdan katta valyuta evaziga olib kelinardi. Bunda qabul qilingan huquqiy-me'yoriy hujjatlar muhim omil bo'ldi. Ular metallurgiya va energetika sohasiga olib mahsulotlarning yangi turarini ishlab chiqarishga zamin yaratdi. Bu esa zavod erishgan muvaffaqiyatlarining asosiy kaliti, hozirgi rivojlanish bosqichiga yetib kelishga asos bo'ldi.

Zavod ayni paytda yiliga 3 million dona sanoat va avtomobil filtri, misdan 4 million dona

elektr nakonechnik, 3000 tonna cho'yan quyma mahsuloti, 5000 tonna po'lat quyma mahsuloti, 1000 tonna mis va latun quvur ishlab chiqarish quvvatiga ega.

Tasavvur qiling-a, 16 nafaranga odam ishlaydigan kichik sex mamlakatimizda biznes uchun yaratib berilgan qulay shart-sharoit tufayli bugun minglab tonna cho'yan, po'lat, mis va latun mahsulotlar ishlab chiqaradigan yirik korxonaga aylandi.

Korxonada Slovakiya, Rossiya va Xitoydan keltirilgan ishlab chiqarish uskunalarini jihozlangan. Bu yerda joriy yilda yangi metodda, ya'ni gazlangan modellar texnologiyasi yordamida po'lat quyish liniyasi o'rnatildi hamda yangi avlod gidroflotatsion mashinasi sxiro qilingi. Jamoa yaratgan yangi usul qator sanoat korxonalarini va Olmalik kon-metallurgiya kombinatida sinovdan o'tkazildi. Hozir ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish maqsadida ushbu mahsulotga patent olish uchun intellektual mulk agentligiga ariza berilgan.

Ushbu yangi avlod gidroflotatsion mashinasi (3000-10 modeli) metallurgiya, tog'-kon sanoati sohasida aeratsiya yo'li bilan qimmatbaho rangli metallarni rudadan ajratib olishda qo'llanadi. Mashina hozirgi flotatsion mashinalardan elektr energiya sarfi bo'yicha bir necha barobar tejankor va yuqori samaradorligi bilan ajralib

turadi. Bundan tashqari, an'anaviy flotatsion mashinalar rudadan 80-85 foiz kerakli rangli metallarni ajratib olsa, u orqali bu ko'rsatkich 95 foizga yetadi.

“NAVPROMLITMASH” MCHJ jamoasining rejalarini yanada ulkan. Davlatimiz rahbarining jamoa bilan uchrashuvi katta rag'bat berdi. Bundan kuch olgan zavod ishchi-xizmatchilari kelgusi 5 yilda faoliyatini yanada kengaytirish, korxonada import o'rini bosuvchi yana 50 dan ortiq mahsulotlar, jumladan, neft-gaz sanoatida ishlatiladigan burg'ilash nasoslari detalini bo'lgan bimetalik vtulkalar, issiqlik elektr stansiyalarida ishlatiladigan, yuqori bosim va issiqlikka chidamli o'chirish klapanlari ishlab chiqarishni, bu orqali xorijga chiqib ketadigan valyutani iqtisod qilishni rejalashtirmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda qo'llab-quvvatlash, qulay ishlab chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar keng erkinlik berish, faoliyatiga asossiz aralashuvlarga chek qo'yish borasidagi izchil islohotlar allaqachon meva bermoqda.

Davlatimiz tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun yaratib berayotgan qulay shart-sharoitlar biznes ahlini ilhomlantirmoqda, ishlab chiqarishda yangi mazzalarini zabt etish uchun katta rag'bat bermoqda.

Jamoa ishlab chiqarishni faqatgina mahalliyashtirish va import o'rini bosish bilan cheklanib qolmay, mahsulotlarini xorijga eksport qilish bilan ham shug'ullanmoqda. Bu yilning o'zida Rossiya, Qozog'iston, Ozarbayjon va Tojikistonga eksport qiymati 1 million dollarga yetishi kutilmoqda. Kelgusida mahsulotlarni yana qator davlatlarga eksport qilish va uning miqdorini keskin oshirish choralarini ishlab chiqilgan.



## Tahlil va taqqos

## 6,6 FOIZ O'SISH

## BUNING ZAMIRIDA NIMALAR MUJASSAM?

Jasurbek OTANIYOZOV,  
iqtisodiyot fanlari doktori,  
professor

## Boshlanishi 1-betda

Davlatimiz rahbari ta'bir bilan aytganda, yangi O'zbekiston modernizatsiyalashgan iqtisodiyotga tayanadi. Bunday iqtisodiyotni shakllantirish uchun undagi davlat ishtirokini kamaytirish, kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish zarur.

Milliy iqtisodiyot barqarorligi ko'p jihatdan iqtisodiyot tarmoq va sohalarni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilash, yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini barpo etish va biznesni rag'batlantirish bilan bevosita bog'liq. Shu bois, mamlakatimizda bu boradagi ishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunda 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosi ayni muddao bo'layotir.

So'nggi besh yildagi asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi deyarli 2,5 barobar ko'paydi. Ayniqsa, 2024-yilning 9 oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,2 trillion so'm ko'p investitsiya o'zlashtirilib, 343,1 trillion so'mni tashkil etdi. Bu borada o'sish tendensiyasi kuzatilayotgani diqqatga sazovor.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning 75,2 foizi yoki 258 trillion so'mni jalb etilgan mablag'lar hisobidan, korxonalar, tashkilot va aholining o'z mablag'larini hisobidan 24,8 foizi yoki 85,1 trillion so'mni moliyalashtirilgan. Shuningdek, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 36,9 trillion so'mni tashkil etgan. Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 306,2 trillion so'm investitsiya o'zlashtirilgan. Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarning umumiy hajmida markazlashmagan investitsiyalar mos ravishda 89,2 foizgacha oshdi. Asosiy qo'ym markazlashmagan investitsiyalar bo'yicha kuzatilmoqda — 35 foiz o'sish, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish sur'ati 47 foiz oshishi hisobiga to'g'ri kelgan. Mazkur holat yurtimizda investitsion muhit jozibadorligini oshirish borasida ta'sirchan chora-tadbirlar ko'rilayotganini anglatadi.



Tahlil qilinayotgan davrda milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ishlab chiqarish o'sishiga erishildi. Xususan, qishloq xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarish hajmi 323,9 trillion so'mni tashkil etgan holda, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 31,2 trillion so'm oshgan. Qurilish ishlari dinamikasi 2023-yilning yanvar-sentabr oylaridagi 7,1 foizdan 2024-yilning 9 oyida 9,1 foizgacha o'sgan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 12,8 foiz oshgan. Xizmat ko'rsatish sohasi bo'yicha eng katta o'sish axborot va kommunikatsiyalar sohasida 23 foiz, moliyaviy xizmatlarda 20 foiz, ta'lim xizmatlarida 16 foiz, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarda 13 foiz, savdoda 11 foiz, turar joy va oziq-ovqat xizmatlarida 10 foiz oshgani kuzatilgan.

Milliy iqtisodiyot rivojida sanoat sohasi yetakchi o'rin tutadi. So'nggi yillarda iqtisodiyot tarmoqlaridagi izchil islohotlar natijasida sanoat ishlab chiqarish hajmining barqaror o'sish sur'atlariga erishildi. 2024-yilning to'qqiz oyida sanoat korxonalar tomonidan 629,2 trillion so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilib, 2020-yilning shu davriga nisbatan qariyb ikki yarim barobar oshdi. Milliy iqtisodiyotda sanoat rivoji qayta ishlash tarmoqlarida mehnat unumdorligi jadal o'sayotgani bilan izohlanadi. Bunga, birinchi navbatda, eksport qiluvchi korxonalar har tomonlama qo'llab-quvvatlanayotgani, ishlab chiqarishga energiyatejamkor texnologiyalar keng joriy etilib, xususiy tadbirkorlikka rag'bat berilayotgani sabab bo'lmoqda.

Jami sanoat ishlab chiqarishi tarkibida mashina hamda asbob-uskunalar, ta'mirlash,

o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor mahsulotlar ulushi 20,2 foizni, metallurgiyani 23 foizni, to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlari hisssasi 16,7 foizni, oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini 18,2 foizni, kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlari ulushi 7,9 foizni tashkil etdi. Bu sanoat tarkibini diversifikatsiya qilish borasidagi chora-tadbirlar ijobiy natijasi berayotganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, istiqbolida iqtisodiyotning barqaror rivojini ta'minlovchi sanoat tarmog'ini tarkibiy jihatdan o'rganish, tahlil qilish va sanoat mahsuloti ishlab chiqarish uchun eng samarali tarmoqlarga alohida e'tibor qaratish lozim.

Bugun mahalliy tadbirkor va ishbilanlarimiz xorij bozorlarining faol ishtirokchisiga aylanmoqda. Ular sifatli, zamonaviy mahsulotlar hamda xizmatlari bilan yangi bozorlarga kirib borish istiyotqida. Shuningdek, import amaliyoti ham faol bo'lib qolmoqda. Bu, albatta, iqtisodiyotimizda ham aksini topmoqda. Masalan, joriy yilning uch choragida mamlakatimiz tashqi savdo aylanmasi 48,2 milliard dollarni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,4 milliard dollar yoki 7,6 foiz oshgan. Biroq tashqi savdo aylanmasi tarkibida import hajmi eksportga nisbatan yuqori bo'lib, mazkur holat tashqi savdo saldosining manfiy, ya'ni 8,6 milliard dollarga teng bo'lishiga olib kelgan. Shu bois, dunyo bozorida raqobat kuchayib, xomashyo narxlar tez-tez o'zgarayotgan hozirgi sharoitda sanoat va eksportda yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlarni ko'paytirish, import tarkibida yuqori ulushli mahsulotlarni milliy iqtisodiyotda



ishlab chiqarish bo'yicha sanoatdagi tarkibiy islohotlarni davom ettirish va faollashtirish maqsadga muvofiq.

Mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan, qayta ishlanyotgan mahsulotlarning jahon bozorida ulushi sezilarli. Ammo uni yanada oshirish imkoniyati mavjud. Ya'ni milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini yuksaltirish va mahsulot tarkibini diversifikatsiya qilish ikkita o'zaro aloqador omillar guruhi orqali belgilanadi. Birinchisi tabiiy resurslar sohasidagi qiyosiy ustunliklar bilan tavsiflangan statistik omillar bo'lib, ular tufayli keyinchalik yuqori texnologik va yuqori darajada qayta ishlangan

mahsulotlarga e'tibor kuchaytiriladi. Boshqa tomondan, bu innovatsiyalar va ilmiy-texnik yutuqlar bilan bog'liq bo'lgan dinamik ravishda o'zgarib turadigan raqobat ustunligidir. Mazkur omillarni uzviy ravishda tahlil qilish orqali milliy iqtisodiyot raqobatdoshligi oshiriladi. Eksporda barqarorlik ta'minlanadi.

Jahon iqtisodiyotidagi konyunkturaviy o'zgarishlar, COVID-19 pandemiyasining iqtisodiy oqibatlar, davom etayotgan geosiyosiy mojarolar, iqlim o'zgarishi va texnologik innovatsiyalarning ta'siri natijasida global iqtisodiyotda quyidagi holatlar yuzaga keldi:

- jahon bozorida talabning pasayishi hisobiga milliy mahsulotlar eksporti hajmi qisqardi;
- global iqtisodiyot va logistika tarkibi o'zgardi;
- ishlab chiqarishning asosiy mintaqalarida o'zgarishlar ro'y berib, raqobatbardoshlik pasaydi;
- yalpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi muvozanat buzildi.

Ushbu holatlar eng yirik iqtisodiyotga ega mamlakatlarda ham ishlab chiqarish va iste'mol hajmi keskin qisqarishiga, global ishlab chiqarish zanjirlari hamda savdo aloqalari izdan chiqishiga, dunyo moliya bozorida xomashyolar narxi tushishiga va konyunktura yomonlashuviga olib keldi.

Global tizimning bir qismi bo'lgan O'zbekiston iqtisodiyotiga ham mazkur omillar muayyan darajada ta'sir ko'rsatmoqda, albatta. Bu, o'z navbatida, salbiy ta'sirlarni yumshatish bo'yicha samarali choralar ko'rishni taqozo etmoqda. Shu bois, makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarning uzluksiz ishlashini ta'minlash, tashqi iqtisodiy faoliyatni

rag'batlantirish, aholini samarali ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida muayyan ishlar bajarilmoqda. Tashqi omillarning salbiy ta'siriga qaramay, O'zbekistonda kelgusida ham barqaror iqtisodiy o'sish saqlanishi Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki va Osiyo taraqqiyot banki kabi xalqaro moliya institutlari tomonidan prognoz qilinmoqda. Bu jarayonda yuqori o'sish sur'atlarini saqlab qolish, bufer zaxiralarni tiklash va tashqi shoklardan himoya qilish uchun makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash hamda tizimli islohotlarni amalga oshirishni davom ettirish zarur.

Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash borasida so'nggi yillardagi keng qamrovi islohotlar iqtisodiy o'sish poydevori sifatida xizmat qilmoqda. Bu ishlarni yanada faollashtirish uchun milliy iqtisodiyot tarmoqlarida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik yangilash va diversifikatsiyalashni yanada izchil davom ettirish, sanoatda yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar turini kengaytirish va sifat jihatidan raqobatbardoshlik darajasini oshirish zarur deb hisoblaymiz. Shuningdek, inson kapitaliga investitsiyalar kiritishni faollashtirish orqali istiqbolida ilmiy sig'imi yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish ko'laminii kengaytirish, faol investitsiya siyosatini yuritish orqali muhim strategik ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish, xorijiy kapitalni, avvalo, moddiy eksportga yo'naltirilgan va import o'rini bosuvchi ishlab chiqarishga jalb qilish ham ayni muddaodir. Bularning bari milliy iqtisodiyot barqarorligini ko'rsatuvchi muhim jihat o'loraq, aholi bandligida aksini topadi. O'zbekiston iqtisodiyotidagi o'sish sur'atlariga ana shunday islohot va o'zgarishlar poydevor bo'lyapti, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.



## RADARLAR QAYD ETGAN QOIDABUZARLIK UCHUN 48 SOATLIK MUDDAT

## Boshlanishi 1-betda

Jumladan, yo'l harakati qoidalarini takomillashyapti. Shuningdek, yo'l harakati tizimini raqamlashtirish, haydovchilar va piyodalarning yo'l harakati qoidalariga rioya etish madaniyatini oshirishga qaratilgan huquqiy asoslar yaratildi. Natijada joriy yilning 6 oyida umumiy yo'l-transport hodisalari o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,6 foiz, o'lim bilan bog'liq hodisalar 1,1 foiz, tan jarohati bilan bog'liq holatlar 9,2 foiz kamayishiga erishildi.

Shu bilan birga, kichik hajmli elektr dvigatelli transport vositalari va individual harakalanish vositalarining ommalashuvi tufayli ulardan foydalanish bilan bog'liq yo'l-transport hodisalarining oldini olish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Shuningdek, maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali qayd etilgan yo'l harakati qoidalarining buzilishi fakti to'g'risidagi ma'lumotni qorab qabul qilish vakolatiga ega bo'lgan mansabdor shaxslarga yuborishning aniq muddatlarini belgilash zarurati yuzaga kelmoqda.

Prezidentimiz shu yil 28-oktabrda imzolagan "O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonun

bu yo'nalishdagi huquqiy asoslar yanada takomillashuviga zamin yaratdi.

— Ilgari qonunchiligimizda foto va video qayd etish texnika vositalari yordamida aniqlangan huquqbuzarliklarga jarima solish to'g'risida qaror chiqarish uchun mas'ul idoralarga yuborishning aniq muddati ko'rsatilmagan sababli ular sodir etilgan vaqtdan boshlab bir necha kun, ayrim hollarda bir necha oy o'tgandan so'ng ijroga qaratilardi, — deydi Oliy Majlis Senati mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisi Qubiddin Burhonov. — Bu esa to'planib qolgan jarimalarni to'lashda ayrim fuqarolarga qiyinchilik tug'dirar va aloshe e'tirozlariga sabab bo'lardi. Chunki amaliyotda huquqbuzarlik haqida vaqtda xabar berilsa, jarimaning 50 foizini to'lash imkoniyati mavjud.

Endi foto va video qayd etish texnika vositalari orqali aniqlangan huquqbuzarliklar haqida o'z vaqtida fuqaroni xabardor etish va chora ko'rish bilan bog'liq yangi norma kiritildi. Bunda yo'l harakati qoidalarini buzilishiga oid ma'lumotlar 48 soat ichida Yo'l harakati xavfsizligi xizmatiga yuborilishi, aks holda haydovchi ma'muriy javobgarlikka tortilmasligi belgilandi.

Yana bir o'zgarish tez tibbiy yordam va yong'in-quqtaruv bo'linalari faoliyati bilan bog'liq. So'nggi yillarda aholi tomonidan bunday xizmatlarga murojaat ko'payib, ushbu transport



vositalarining bir manzildan ikkinchisiga tez yetib borishiga ehtiyoj ortmoqda. Ushbu yordam va xizmatlar zudlik bilan ko'rsatilishini ta'minlash maqsadida tez tibbiy yordam hamda yong'in-quqtaruv bo'linalari transport vositalari katta tezlikda yoki yo'l belgilariga rioya etmay harakatlanishi bilan bog'liq holatlar mavjud.

Bunday holatlar esa, o'z navbatida, avtomatlashtirilgan foto va video texnika vositalari orqali qayd etilmoqda. Bu jarayonda qonunchiligimizga asosan ochilgan ma'muriy

## Qonunchilikda yangilik

paytida yo'llarda tirbandlikning oldini olish imkonini beradi. Shu bois, ushbu harakatlanish vositalaridan foydalanish ko'lami tobora kengaymoqda.

Mazkur turdagi ulovlardan foydalanishda ham muayyan qoida va tartib-tamoyillarga amal qilish inson hayoti hamda sog'lig'ini asrash uchun muhim. Ammo individual harakatlanish vositalari yordamida huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlik nazarda tutilmagani keyingi paytlarda bahs-munozaralarga sabab bo'layotgan edi. Qolaversa, Toshkent shahrida 2023-yil iyunidan boshlab o'tkazilgan reytda individual harakatlanish vositalari boshqaruvchilari tomonidan 200 dan ortiq yo'l harakati qoidasi buzilgani aniqlangan. Bu holat sohada huquqiy munosabatlarni takomillashtirishni taqozo etdi.

Shunga ko'ra, qonunchiligimizga tegishli o'zgartirish kiritildi. Xususan, skuter, individual harakatlanish vositalari (sigvey, elektr samokat, monokoleso) yordamida huquqbuzarlik sodir etganlik, jumladan, skuter, moped, velosipedlar hamda ulovli aravani boshqarish, shuningdek, individual harakatlanish vositalari va skuterlarning haydovchilari tomonidan odamlarni tashig'lik uchun ma'muriy javobgarlik belgilandi.

— Bundan 6-7 yil avval yo'l-patrol xizmati xodimlari agar haydovchi yoki piyoda o'zi sodir etgan huquqbuzarlik faktiga e'tiroz

bildirmasa, unga joyida jarima solish va qoidabuzarga kvitansiya berish amaliyoti mavjud edi, — deydi Qubiddin Burhonov. — Bugun esa davr rivojlanib, yo'l-patrol xizmati xodimlariga ma'muriy qoidabuzarlikni aniqlash va belgilangan tartibda rasmiylashtirish uchun elektron planshetlar tarqatilgan. Qoidabuzar haydovchi yoki piyodaning shaxsiga aniqlik kiritish, unga nisbatan elektron tartibda bayonoma tuzish va mobil aloqa vositalari orqali o'ziga nisbatan qo'llangan jarimalarni to'lash imkoniyati yaratilgan.

Shu bois, qonunchiligimizga kiritilgan o'zgartirish orqali mazkur vakolat bekor qilinishi yo'l-patrol xizmati xodimlari va yo'l harakati qatnashchilari o'rtasida turli korrupsiyaviy holatlar yuzaga kelishining oldini olishga xizmat qiladi.

Qonunchiligimizga kiritilgan yana bir yangilik yuk avtomobillari faoliyati bilan bog'liq. Yo'l harakati qoidalarida yuk avtomobillariga faqat chapga burilish yoki qayrilib olish uchun yo'lining chetki chap qatorini egallashga ruxsat etilgan, boshqa vaziyatlarda chap qatorida harakatlanish taqiqlangan. Ushbu qoidabuzarlik uchun amaldagi qonunchilikda jazo choralarini belgilanmagani sababli aksariyat hollarda haydovchilar yo'lining chap qatorlarida bemaol harakatlanmoqda. Bu holat avtomobil yo'llarida tirbandlik va avariya sodir bo'lishiga olib kelmoqda.

2024-yilning 7 oyida yuk avtotransport vositalari bilan bog'liq 303 ta yo'l-transport hodisasi sodir etilgani oqibatida 108 fuqaro halok bo'lgan, 227 nafar tan jarohati olgan. Shu jihatlar e'tiborga olinib, yuk avtomobillari yo'lining chetki chap qatorida harakatlangani (ruxsat etilgan hollar bundan mustasno) uchun ma'muriy javobgarlik belgilandi.

Qonunchiligimizga kiritilgan ushbu o'zgarishlar yo'llarda harakat xavfsizligini ta'minlash, yo'l-transport hodisalarining oldini olish, fuqarolarning qonuniy manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Bahor XIDIROVA,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



# XORIJIY TILNI BILISH SERTIFIKATI

## U BILIM VA MALAKANI IFODALAY OLADIMI?



### Nuqtayi nazar

**Nafaqat yurtimizda, balki butun dunyoda chet tillarni o'rganishga qiziqish ortmoqda. Jahon hamjamiyati integratsiya jarayoniga dadil va faol kirib borayotgan pallada xorijiy til bo'yicha bilimlarga ehtiyoj ortishi tabiiy. Chet tilni bilish yangi xalqaro aloqalar va dunyoning turli burchaklarida odamlar bilan tanishish, muloqot qilish, fikr va g'oya almashish, do'stlik hamda professional aloqalarni o'rnatish imkonini beradi.**

Yutimizda xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda va bu borada tizimli ishlar yo'lga qo'yilgan. O'tgan yillar davomida xorijiy tillarni bilish darajasi sezilarli o'sdi. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi bergan ma'lumotga ko'ra, til bilish sertifikatiga ega maktab o'quvchilari soni joriy yilning avgust oyi holatiga ko'ra 37 ming 74 nafarni tashkil etib, 2021-yildagidan (10 ming 960 nafar) 3,3 karra oshgan.

2021-yilda 1944 nafar (5 foiz)ni tashkil etgan bo'lsa, hozirgi kunda 27 ming 992 nafar (56,5 foiz) yetdi.

Xorijiy tillarni bilish sertifikatini turli mamlakatlardagi ta'lim muassasalari, ish beruvchilar va boshqa tashkilotlar tomonidan talab etiladigan tasdiqlovchi hujjatdir. Xalqaro sertifikatni chet tildan maxsus imtihon topshirish orqali olish mumkin. Imtihonlar dunyoga mashhur, tan olingan xususiy va davlat tashkilotlari tomonidan o'tkaziladi hamda qo'llab-quvvatlanadi.

Bunday sertifikatga egalik nufuzli oliyog' yoki kompaniyaga ishga kirish imkoniyatini sezilarli darajada oshiradi. Ayni paytda yurtimizda tan olingan bir necha xalqaro va milliy sertifikat amal qiladi. Bularning har biri turli yo'nalishlarda o'quvchining til bilish darajasini aniqlaydi. Ammo sertifikat insonning bilimi va malakasini ham ifodalaydimi? Shu hujjatga egalik ilm-fanga qanday yangilik bera oladi?

Mutaxassislarning shu haqdagi fikri bilan qiziqdik.



### Shuhrat MURTAZO, Kolumbiya universiteti doktranti:

— Mehnat faoliyatim davomida talabalarim va ularning ota-onalaridan "Falonchining IELTSi 7.5 ekan, 8 ekan, demak, juda "kallali" ekan, zukko ekan" qabilidagi gaplarni ko'p eshitganman. Rostdan ham shundaymi? O'qituvchi sifatida kuzatganlarimdan aytishim mumkin, IELTSning baland bali va yuqori intellekt o'rtasida doim ham bog'liqlik bo'lavermaydi. Agar talabning bilim va salohiyati kuchli bo'lsa, bu IELTSdagi yutuqlari sharofta bilan shakllangan deb xulosa qilish xato. Ya'ni ham IELTSda, ham dunyoqarashda, ham intellektual salohiyatda baravar yuqori natijaga erishgan nomzodlar bor. Ammo insonda bularning biri bo'lmasa, boshqasi ham bo'lmaydi, degani emas. Til, asosan, muloqot vositasi.



— "Til o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar xalqaro jumali"da e'lon qilingan maqolaga ko'ra, IELTSning o'qib tushinish qismi test topshiruvchining IQ salohiyatini belgilab bermaydi. Ayni shu maqoladan iqtibos keltirilgan boshqa maqolaga ko'ra, talabalar ko'pincha o'zi o'qigan matni to'liq tushunmasa ham savollarga to'g'ri javob topgan. Cotton & Conrow tadqiqotida IELTS natijalari va talabning umumiy akademik o'zlashtirishi orasida bog'liqlik yo'q deb topilgan. Mahdavy tadqiqotiga ko'ra, IELTS imtihonining o'qib tushinish qismida past ball to'plagan qatnashchilarda pragmatik va matematik

intellekt yuqori bo'lishi aniqlangan. Shuningdek, ayni tadqiqotda ingliz tilini o'rganayotgan 117 talabning "ko'p qirrali intellekt" darajasi hamda IELTS va TOEFL testlarining "tinglab tushunish" darajasi o'rtasidagi bog'liqlik o'rganib chiqilgan, natijada bu ikki ko'rsatkich o'rtasida bog'liqlik yo'qligi ma'lum bo'lgan.

Shuni diqqatga molikki, so'nggi yillarda AQSHdagi ko'plab nufuzli universitetlar qabul jarayonlarida standartlashtirilgan testlardan voz kechmoqda. Forbes nashri hisobotiga ko'ra, bakalavr darajasini beruvchi OTMLarning 80 foizdan ko'prog'i, jumladan, mashhur Garvard, Yel hamda Kolumbiya universitetlari yaqin kelajakda qabul jarayonlarida standartlashtirilgan testlardan foydalanmaydi. Garchi ko'p vaqt va mehnat talab qilsa-da, bu universitetlar qabul qilayotgan talabalarining salohiyatini individual ravishda o'rganib chiqib, ular yozgan motivatsion esse va zarur holdarda onlayn intervyu orqali tanlab olish formatiga o'tgan. Mazkur oliyog'ohlar o'z qabul qarorlarini chiqarishda bir-ikki kunlik test natijalariga tayanib emas, nomzodning uzoq muddatli barqaror erishgan yutuqlarini, maktabda olgan bahosini, o'qituvchilar tomonidan berilgan tavsiyanomalarini, darsdan tashqari ijtimoiy loyihalardagi faol ishtirokini inobatga olishadi. Yuqorida sanab o'tilgan natijalarni AQSHda osonlik bilan qo'lga kiritib bo'lmaydi — bu uchun maktabda yillar davomida olingan baholar, o'rtirilgan bilim va ko'nikmalar ko'rib chiqiladi.

### Shahlo TEMIROVA, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish boshqarmasi boshlig'i:



— Malaka va til bilish sertifikatlari mavjud. Xorijiy til o'qituvchisining dars o'tish malakasi, qobiliyatini malaka sertifikatlari ko'rsatadi. Bunda o'qituvchining xorijiy tilni qay darajada bilishi, o'qitishda qaysi metodlardan foydalanishi, bolalar tilni osong'ra o'rganishi uchun nima qilish kerakligi borasidagi bilimi sinovdan o'tadi.


Yuqori darajadagi til sertifikatlari dunyoga mashhur oliy ta'lim muassasalarida o'qish va o'qitish uchun kalit bo'lib xizmat qiladi. Dunyoda tan olingan universitetlarining aksariyati, birinchi navbatda, til bilish sertifikatini talab etadi. Chunki o'rganmoqchi bo'lgan fanni tushunish va yaxshi o'zlashtirish

uchun ta'lim olayotgan tilni yaxshi bilish kerak. Dunyoda bo'layotgan ko'plab o'zgarishlarning manbasi xorijiy tillarda va ularning asl ma'nosini chaqib, ya'ni tarjimasiz, o'z holicha tushunish muhim. Tarjima qilganda materialning asl ma'nosi, xohlaymizmi-yo'qmi,

eng kamida 20 foiz yo'qoladi. Tarjimon o'z fikrini qo'shib tarjima qilib berishi isbot talab etmaydigan aksioma. Shu bois, chet tilni yaxshi bilish va manbani to'g'ridan to'g'ri anglash asosiy jarayondir. Til bilish sertifikatini esa aynan til o'rganuvchilar uchun qaysi darajada ekanining o'lchovi, mezonini hisoblanadi. Misol uchun, men xorijiy tillarni juda yaxshi bilaman, deyishim mumkin, biroq buni chet til sertifikatini ko'rsatish orqaligina isbotlay olaman.

Til bilish sertifikatini tanqidiy fikrlash ko'nikmasini shakllantiradi, degan haqli savol tug'ilishi mumkin. Ha, yordam beradi. Masalan, IELTSda tanqidiy fikrlashga yo'naltirilgan savollar, yozish, gapirish, o'qish ko'nikmasida har xil sohaga tegishli matnlar beriladi. Shu bilan birga, vaqt talabi qo'yiladi va tahlil qila olishingiz lozim. Tezroq fikrlab, tahlil qilib, javobini topishingiz kerak bo'lgan savollarga taqdim etiladi. Dunyo reytinglarida, nufuzli universitetlarda tan olingan til bilish sertifikatlari, albatta, tanqidiy fikrlashni shakllantiradi.

### Murodbek ISLOMOV, Toshkent shahridagi Vebster universiteti bitiruvchisi:



— Bolalarga qaysi yoshda ingliz tilini o'rgatish kerak? Shu yerda qarama-qarshi faktlar bizi qiynaydi. Sababi olimlar fikricha, yoshlikdan til o'rganishni boshlagan bolalarning miya faoliyati boshqalardan tezroq rivojlanadi va mantiqiy fikrlash mahorati kuchli bo'ladi. Ingliz tilini yoshlikda o'rganmagan, ammo aniq fanlardan bilimi kuchli, fikrlash qobiliyati yaxshi bo'lgan o'smir yoshidagi yoki katta odamlarda ingliz tilini qisqa muddatda o'rganish, hatto boshqalardan muayyan darajada ilgirilib ketish holatlari kuzatiladi.

Qisqa qilib aytadigan bo'lsak, maktab yoshidan til o'rganib borish yaxshi, bir jihatdan yangi tilni o'rganishga qiziqishi ortadi, miya faoliyati kuchayishi, xotira mustahkamlanishi, ilmiy salohiyat oshishi mumkin, lekin bu bilan fokus faqat til o'rganishga qaratilib, boshqa asosiy fanlar qolib ketishi noto'g'ri.

Albatta, xorijiy tillarni, ayniqsa, hozirgi kunda ingliz tilini mukammal bilish yaxshi joylarga ishga joylashishga muayyan darajada yordam berishi yoki o'z kasbini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etishi mumkin. Sababi har qanday sohada mutaxassis o'z ustida ishlashi, tajriba orttirishi, yangiliklardan boxabar bo'lishi, dunyoda bo'layotgan o'zgarishlarni o'rganishi hamda turli mahalliy va xalqaro seminar-treninglarda qatnashib turishi katta ahamiyatga ega. Hozirgi paytda odamlar biror ma'lumot zarur bo'lsa, darhol internetga kirib, o'ziga kerakli ma'lumotlarni izlaydi. Internetdagi asosiy ma'lumotlar, manbalar, kitoblar, qo'llanmalarining aksariyati ingliz tilida. Ko'p olimlar ilmiy ishlarini ingliz tilida bajaradi va dunyoga shu tilda taqdim etadi. So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kungacha Nobel mukofoti sovrindorlari soni 900 nafardan oshgan va ularning katta qismi ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlardan. Masalan, AQSHda Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan 413 nafar (dunyo bo'yicha birinchi o'rinda), Buyuk Britaniyada 138 nafar, Kanada va Avstraliya kabi ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarda mos ravishda 27 va 14 nafardan olim bor. Ingliz tilida so'zlashuvchi bu xalqlarning o'zi 600 ga

yaqin laureatni, ya'ni tarixdagi Nobel mukofoti sovrindorlarining deyarli yarmidan ko'pini bergan.

Xorijiy tillarni bilish darajasini aniqlab beruvchi tizimlar (sertifikatlar), xoh u IELTS, xoh TOEFL, TESOL va boshqalari bo'lsin, ularning hech biri ingliz tilidagi bilimni baholay olmaydi. Shuni unutmaslik kerak, IELTS sertifikatini "user", ya'ni "foydalanuvchi" maqomini beradi, ingliz tilini bilish maqomini emas. Ya'ni siz ingliz tilida qay darajada (0-9 gacha shkalada) fikringizni so'zlab yoki yozib ifoda et olishingiz hamda qay darajada o'qib, tinglab tushuna olishingizni aniqlab beradi, xolos. IELTS va shunga o'xshash ingliz tili testlari insonning ingliz tilidagi qobiliyatini aks ettirmaydi. Ingliz tilini bilish deganda, uning ichki qonun-qoidalari, tarixi, har bir so'zning kelib chiqishi, leksikologiyasi, stilistikasi, fonetikasi va boshqalarni bilish tushuniladi. Masalan, IELTS test tizimida talabgor faqat kundalik voqealar yoki ijtimoiy va ilmiy mavzuga aloqador o'z fikrini ingliz tilida ifoda qilib berishi kerak.

Lekin ta'lim sohasida abituriyent yoki boshqa talabgorning xorijiy tilni bilish darajasini baholash uchun muayyan turdagi standart malaka imtihoni o'tkazilishi lozim. IELTS va ingliz tilini bilish darajasini baholab beruvchi boshqa test tizimlari bizga talabgorning xorijiy tillardan qay darajada foydalana olishini aniqlashimizda katta yordam beradi.

Xorijiy tillarni o'rganishda har bir vaziyatga standart yondashmaslik kerak. Talabgorning kelajakda tanlagan mutaxassisligi aniq fanlarga yo'naltirilgan bo'lsa, shu fan o'qituvchilari xorijiy tilning o'ziga kerakli jihatlarini izlanishda davom etadi. Til mutaxassislari esa sohani chuqur o'rganishga e'tibor qaratsa arziydi. Sertifikatlar faqat zaruriyat tug'ilgandagina kerak bo'lishi mumkin.

### Firdavs SOBIROV, "Yangi O'zbekiston" universitetining kimyo muhandisligi fakulteti 4-bosqich talabasi:



— Kimyo fanidan xalqaro olimpiadalarning 4 karra, respublika olimpiadalarning 2 karra g'olibimam. Shuningdek, Yoshlar ishlari agentligi tomonidan "Tahsin" milliy mukofoti bilan ham taqdirlanganman. Ikki yil oldin IELTS imtihonidan 6.5 ballni qo'lga kiritgan edim. Yaqinda ikkinchi marta shu imtihondan o'tib, 7.5 ball to'play oldim.

Chet tillarni bilish menga maktab va universitetda juda asqatdi. Misol uchun, xalqaro olimpiadalarga tayyorgarlik davrida, asosan, ruscha adabiyotlardan foydalandim. Aslida, rus tilini ham kimyo fanidagi nazariy va masala yechish kitoblari orqali o'rganganman. Bu esa menga rus olimlari tomonidan yozilgan kitoblarni va tuzilgan masalalarni originalida o'qish va yechish imkoniyatini berdi. Nafaqat tayyorgarlik jarayonida, balki olimpiadalarning o'zida ham masalalarni aynan shu tilda yechganman. Masalan, Rossiya tomonidan o'tkaziladigan xalqaro Mendeleev kimyo olimpiadasida masalalar birinchi tur tilida tuziladi. Tilni bilgan o'quvchi ularni asl holatda yechaveradi. Lekin bilimadigan o'quvchilar uchun o'z davlatidan kelgan mentorlar masalalarni o'z tiliga tarjima qilib beradi. Tabiiyki, har qanday narsa asl tildan boshqa tilga o'girilayotgan payti bu ikki tillarning qiyosiy xususiyatlariga, solishtirma leksik boyligiga bog'liq bo'lmagan ravishda qaysidir darajada o'z ma'nosini yo'qotadi. Ya'ni tarjima aslidan ko'ra g'alizroq chiqadi. Kimyo fanida masala yechishda esa, albatta, uning shartini to'liq tushunish, mohiyatiga chuqur yetib borish juda muhimdir. Mening rus tilini chet til sifatida bilganim va buni olimpiadalarda ishlatishim uchun yuqorida sanab o'tgan yutuqlarni qo'lga kiritishimda asosiy omillardan biri bo'lgan.

Ingliz tilini esa o'rganishim sust kechgan. Hozir bundan juda afsuslanaman. Sababi men qatnashgan Xalqaro kimyo olimpiadasida (IChO) savollar Mendeleev olimpiadasidan farqli o'laroq ingliz tilida tuziladi. Biz esa o'shanda savollarni rus tiliga tarjima

qildirib yechganmiz. Chunki grammatika nuqtayi nazaridan olib qaraganda ham bu ikki til bir-biriga ancha yaqin. Shundan so'ng ingliz tilini chuqur o'rganishga harakat qildim. Hozir o'sha savollarning asl variantini olib qaraganam, nega maktab payti ingliz tilini o'rganmagan ekanman deb ko'p o'ylayman. Sababi bu til texnik so'zlariga juda boy. Ingliz tilida shunday ilmiy atamalar borki, boshqa tillarda ularning muqobil tarjimalari uchraymaydi. Agar tilni mukammal o'rganishga harakat qilsam, qiyinchiliklar kamroq bo'lardi.

Shunday bo'lsa-da, hozir ingliz tili bilimdoni ekanim, ayniqsa, o'z sohama ahamiyatidir. Chunki kimyo muhandisligi — yangiliklar va innovatsiyalar sohasi. Yaxshi kimyo muhandisi dunyo ilmiy hamjamiyatidagi yangiliklardan, ixtiro va kashfiyotlardan boxabar bo'lib turishi lozim. Qanday nazariyalar ishlab chiqilyapti, qanday yangi moddalar sintez qilinaypti, katalizatorlar kimyosida nima yangiliklar? Bularning bari muhim va chet tilni bilganim uchun bu yangiliklardan xabardorman.

Ziyrak o'quvchining maqsadi til o'rganish emas, balki shu tilni o'z sohasida ishlatish bo'lishi kerak. IELTSdan 8.5 yoki 9 ball olaman deb o'n yillar ingliz tilini o'qish o'rni 7-7.5 ballning o'zi bilan ifoyalani, boshqa sohalariga, ilm-fanga ko'proq e'tibor qaratis kerak deb o'ylayman. Bu qisqa muddatli tajribamdan chiqqan xulosam.



### Nargiza QO'CHQOROVA, xalqaro ekspert, Hornby xalqaro stipendiyasi stipendiyati:

— IELTSga tayyorgarlik jarayonida ko'p o'quvchilar berilgan savolga mantiqiy javob berish, insho yozish, fikrini to'g'ri bayon qilish, dalillar keltirishni o'rganadi. Bunda 5 xil insho yozish talabi keltirilgan. Masalan, bir narsaning afzallik yoki salbiy jihatini tahlil qilib berish kerak bo'ladi. Bu kommunikativ kompetensiyalarni egallashga ko'mak beradi. Og'zaki va yozma nutqni tushunish, muloqot qila olish va boshqa ko'nikmalar shakllanadi. Shu bois, men til sertifikatini olayotgan bolalar tilni avtomatik, yuzaki o'rganaypti, deya aytay olmayman.

O'quv dasturlarida boshqa fanlarning balansi keltirilgan. Shu jumladan, xorijiy tillar ham aniq mezonlar asosida o'tilmoqda. Hozirgi qabul qilingan tizimda tanlov fanlari, variativ

"Yangi O'zbekiston" muxbiri Risolat MADIYEVA tayyorladi.





Sidqiy Xondayliqiy tavalludining 140 yiliga

# MILLAT UCHUN JONFIDOLIK QILGAN BUTUN ODAM

Qaysi inson boshiga beayov tashvishlar yog'ilishini istagan deysiz? Kim ham rohat-farog'atda yashashni xohlamaydi? O'tmishning achchiq haqiqatlari haqida o'qir ekanimiz, yaqin tariximizda ne-ne kulfatlarni boshidan kechirgan yuzlab ziyolilarning azob-uqubatleri, og'ir hayot yo'li qalbimizni vayron qiladi. Ularning qismatidan ko'zimiz achchiq yoshga to'ladi.

Jadidlarning aybi nima edi? Ular yolg'onchi edimi, o'g'rillik qilganmi yoki boshqa og'ir jinoyatga qo'l urganmi? Yo'q, aksincha, ular bunday xunuk qilmishlarga butun hayoti davomida tish-tirnog'i bilan

Tarixiy o'tmish ikki ming yildan ziyod bo'lgan Xondayliq qishlog'ida nafaqat o'z makoni, balki butun Sharqqa ma'lum va mashhur bo'lgan Mirzohidovning ismi ziyoli inson yashar edi. Uning dong'i olislariga ketgandi. Buning isboti shuki, Mirzohid ota xonadonida ochgan maktabda Chimkent, Sayram tomonlardan, hatto Farg'ona vodiysidan talabalar kelib, ta'lim-tarbiya olar edi. Bozorboshi mahallasining bosh qismida olisdan kelgan talabalar uchun yotoqxonalar tashkil etilgandi. Unda ko'p sonli talabalar yashardi. Bag'rikeng, olijanob ustoz ilm toliblaridan zinhor yotoq uchun haq so'ramas, ular hovli-joyini obod, farovon qilish uchun baholi qudrat ko'maklashardi. Ularning hayotini tartibga solib, muvofiqlashtirib turuvchi Imomali ismli xondayliqlik yigit Mirzohid domlaning o'ng qo'li va jonkuyar ko'makdoshi edi...

Ushbu xonadonda uchinchi bo'lib 1884-yilda dunyoga kelgan Sirojiddin ismli farzand o'n to'qqiz yoshga yetganda xonadon bag'ridan katta shahar — Toshkent tomon yo'lga tushardi. Bu xayri, ammo azob-uqubatlari yo'ldan o'g'irligi qaytara olmagan ota taqdiriga tan berib, unga eng ishonchli ko'makdoshi bo'lmish Imomali domlani hamroh qildi. Bu davrda, ya'ni 1900-yillar boshlarida Imomali ota Mirzohid domla qo'lidan o'tib, avval Kesakqo'rg'on, keyinchalik esa Beklarbegi madrasalarida o'z o'rini topib ulgurgan edi.

Sirojiddin Maxdum Mirzohidovning o'g'li Sidqiy Xondayliqiy davriming eng og'ir, sinovli vaqtida Toshkent shahrida azob-uqubatlar

bilan yashay boshladi. Bu davrda butun Sharqning ziyolilari, o'qish va ilmga tashna yoshlar Toshkentga intildilar. Ular bu shaharda vatanparvar, adolatparvar insonlar bilan do'stlashib, nurli yo'lda olg'a qadam bosmoqda edi. Ana shunday katta davrda Sidqiy tez fursatda ko'zga tashlandi. U tug'ma olijanoblik, xalqparvarlik, haqiqatgo'ylik, odamoxunlik singari fazilatlarini orqali safdoshlari hurmat-e'tiborini qozonib boshladi. Shu bilan birga, Sharq xalqlari mustaqilligini tag-tugi bilan yo'q qilishga shaylangan bosqinchilar nazariga ham tushib, umrining muayyan qismini katta shahardan olisda o'tkazishga majbur bo'ldi. Jadidlarni bo'lar-bo'lmas ayblovlar uyushtirib otish, oshish, surgunga giriftor aylash kabi yovuzliklar kutib turar edi.

Sirojiddin Sidqiyning ham shunday ko'rgiliklar kutayotganini bilgan safdoshlari yangi ochilgan yo'l orqali vagonga joylashtirib, Farg'ona vodiysiga jo'natib yubordi. Shunday qilib, "Vagon ta'rifida" deb nomlangan she'r yo'li-yol'akay dunyoga kelgan edi. Sidqiy

Xondayliqiy avvallari Shavkat, Shevan kabi taxalluslar tanlagani ma'lum. Farg'ona vodiysida uch yildan ziyod azob-uqubatlar qirshovida qovurilgan serqirra adib jonajon qishlog'ini qo'masab, so'nggi bor qat'iy ravishda ijod mahsullariga Sidqiy Xondayliqiy taxallusini tanlab oldi. Buning sababi va isboti sifatida "Xondayliq tarixi" degan maqolasini yozdi. Ushbu maqola qo'lyozmasi hozir Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda. Keyinroq "Vatan" she'ri ham shu sog'inch asosida tug'ilgan edi.

Vatan nadir: tuqqon yerim, turg'on yerim, O'sib-unib, o'ynab-kulib yurg'on yerim. Vatan menga haqiqatda qo'ndog' kabi Tarbiyaning negizini qurg'on yerim. O'teshakda o'rdan-qirdan bug'doy tashib, Issiq kunda o'ng'aysizlik ko'rg'on yerim... Jonim Vatan, tanim Vatan, ko'zim Vatan, Esdan chiqar oni ko'rg'och, ko'rg'on yerim. Sidqiy, meni mehnatiki garchand ezar, Qayga boray, davr-u davron sург'on yerim. Sirojiddin Sidqiy qayda bo'lmasin, o'zi

singari haqiqatparvar, vatanparvar do'stlar bilan topishar, nurli yo'lda ular bilan birga qadam tashlar edi. Farg'ona vodiysida ham Rizoiy Andijoniy singari odamoxun, mehribon do'stlar ortirdi. Imomali ota borib olib qaytgunga qadar vadiylik do'stlari himoyasida bo'ldi.

Buni qarangi, Toshkentda shoirni kutib turgan sovuq xabar bor ekan. Do'stlari xatardan ogoh etib, uni Sibir surguni kabi falokatdan astash maqsadida Tovoqsoy qo'rg'onidagi Pargiz qishlog'iga jo'natishdi. Bu joyda Xondayliqdan ko'chib kelgan qishloqdoshlari yashardi. Ular qishloqdoshi Sirojiddin Sidqiyning quchoq ochib kutib oldi. Hatto hashar uyushtirib, tez fursatda shinamgina hovli-joy tiklab berdi.

Shoirni serqirra adib, hayotning har jabhasida mahorati inson, deysish mumkin. Shu bois, Sirojiddin Sidqiy yangi buyud etilgan hovlisini tanib bo'lmas darajada go'zal maskanga aylantirdi. Turli daraxtlarni har xil usulda payvandlaydi. Uning mahorati,

izlanuvchanligi bois, hovlisida qishin-yozin o'simliklar yayrab-yashnab turardi. Buni ko'rganlar hayratlanar, qoyil qolardi. Hovlidagi bir tup tol daraxtiga har yili laylak in quras va bola ochardi. Bu bir jonzotning hovli egasiga mehr va ishonch ifodasi edi.

Kuz kunlarining so'nggi damlarida Sirojiddin Maxdumning birdan tobi qochdi. Harorat baland edi. O'zi tabiiy sifatida yuzlab bemorlarni davolagan bo'lsa-da, bu safar qimirlay olmasdi. Yuqori harorattan tashqari bosh og'rig'i turishga, biror muolaja qilishga yo'l qo'ymasdi. Shoirning qizlari chopqillab borib, To'xtamurod ismli feldsherni chaqirib keldi. To'xtamurod tun yarmida kelib, bir dori berdi-da, chala xayrlashib, jo'nab ketdi. Tong saharga borib jadidlarning ishonchli hamda taniqli ustoz Sirojiddin Maxdum Mirzohidovning o'g'li Sidqiy Xondayliqiy ellik yoshida olamdan ko'z yumdi.

Jadidlarga qarshi tish qayragan ayrim guruhlar uni din dushmani deb aylagan edi. Ammo adolat doim qaror topishi rost. Serqirra adib yozib qoldirgan "Mezoni shariat" kabi ajoyib asarlarini muxlislar hanuz qo'lidan qo'yamay o'qimoqda.

Sidqiy umrining so'nggi damlarida ushbu o'g'irlarni ko'p aytgan ekan: "Odam uch xil bo'lur, butun odam, yarim odam, odam hisobinda bo'lmagan odam. Butun odam uldurki, o'z aqliga ish berib, kasb-u korga mashg'ul bo'lur, kirishur va tirishur. Yarim odam uldurki, biror ishning uhdasidan chiqqa olmas, o'zganing irshodi (dalolati) birla ishga kirishur va tirishur. Odam hisobinda bo'lmagan odam uldurki, na unisining va na bunisining uhdasidan chiqar. Ular yalqovlar, dangasalar, tekinox'rlar jamoasi erurki, ta'ma birla kechirur".

Millat, vatan uchun jonini tikishdan ham cho'chimagan Sidqiy Xondayliqiy kabi butun odamlarimiz hayot va ijod yo'li yoshlarimizga ibratdir. Zero, vatan sha'nini baland ko'tarmoq, uning koriga yarash uchun shu yo'lni bosib o'tgan ulug'lar hayotidan namuna olish kerak bo'ladi.

Asad ASIL, yozuvchi

## ULUG'LARING — YUKSAKLIKING, QASRING, VATAN!

Oltin kuzning yoqimli shabbodasi kezgan tong chog'ida bir guruh ijodkorlar Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanidagi Xondayliq qishlog'iga yo'l oldik. Avtobus oynasidan birin-sirin almashib borayotgan tabiat manzaralarini kuzatib boryapmiz. Bir mahal hamrohlarimiz mushoira boshlab yubordi. Ular atoqli shoir, xattot va tarjimon Sirojiddin Maxdum Mirzohidovning o'g'li Sidqiy misralarini ham o'zgaricha zavq va surur bilan o'qiy ketdi.

Nihoyat azim tog'lar saltanatiga kirib borar ekanimiz, qizil, sorig', yashil ranglar simfoniyasidan ta'sirlangan filologiya fanlari doktori, professor Bahodir Karim ayni safarimiz debochasiga mos mulohazani bayon etdi: "Bu yerga kelgunimizcha ko'p manzillardan o'tdik, lekin Xondayliq manzaralari

bizga hamma ko'rganlarimizdan aziz va mo'jaz ekanini his qildik. Chunki millatimiz jonkuyari, ma'rifatparvari Sidqiy Xondayliqiy muhrkan, ya'ni muhr yasovchi bo'lgan. U nafaqat o'z hunari, balki ijodi, Vatanga bo'lgan mehri bilan xalqimiz qalbiga o'z muhrini bosib ketgan".



Dastlab Xondayliq qishlog'ida tashkil etilgan Sidqiy Xondayliqiy nomidagi kutubxonaning ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Unda ziyolilar, ijodkorlar, nuroniyklar hamda hudud faollari ishtirok etdi. Shoir tug'ilib o'sgan Xondayliq qishlog'ida

mahalla binosi yonida mazkur mo'jazgina kutubxona 3 mingdan ziyod kitoblardan iborat bo'ldi. Ochilish marosimida ramziy lenta qirg'olgan, ishtirokchilar kutubxonada yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi.

Shundan so'ng ijodkorlar va keng jamoatchilik vakillari "Chorvoq" oromgohida Toshkent viloyati hokimligi hamda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Toshkent viloyati bo'limi hamkorligida tashkil etilgan "Vatan nadir, tuqqon yerim, turg'on yerim" nomli adabiy-ma'rifiy xotira kechasida jam bo'ldi.

Yurtimizda olib borilayotgan islohotlarda xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishga beqiyos hissa qo'shgan atoqli shoir va yozuvchilar, ijod ahli namoyandalarning tavallud sanalarini keng nishonlash hamda faoliyatini chuqur o'rganish va targ'ib etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Sidqiy Xondayliqiy xotirasi va ijodiga bag'ishlangan kecha ham ana shunday ezgu ishlarning uzviy davomidir.

Adabiy kechada Toshkent viloyati hokimi Zoyir Mirzayev, Bo'stonliq tumani hokimi Jo'rabek Ahmedov, O'zbekiston Qahramoni Ibrohim G'afurov, Yozuvchilar uyushmasi raisining birinchi o'rinbosari Minhojiddin Mirzo, O'zbekiston xalq shoiri Mahmud Toir, adabiyotshunos olim Bahodir Karim, "Saodat" jurnali bosh muharriri Munavvara Usmonova, shoir Zohidjon Olov so'zga chiqdi.

— Ilk she'rlarini "Shuhrat", "Shevan" taxalluslari bilan yozgan, — dedi Ibrohim G'afurov. — Keyinroq barcha asarlarini Sidqiy Xondayliqiy taxallusi bilan chop ettirgan. Poetik ijodining asosiy qismini hajviyot va ijtimoiy she'rlar tashkil qiladi. Ijtimoiy mavzudagi she'rlari esa o'sha davrning muhim voqealariga bag'ishlangan. Yana bir muhim jihati, Xondayliqiy arab, rus tillarini ham juda yaxshi bilgan. Ayniqsa, uning ikki jildli arab tili etaklari kitobi diqqatimni tortgan. Bu tarjimini o'qib, jadid bobolarimiz



o'zbek tilini mukammal o'zlashtirganiga guvoh bo'lganman.

Tadbirida ulug' ijodkor qalamiga mansub asarlar jamlangan saylanma kitob nashr qilinayotgani va tez kunda keng jamoatchilikka taqdim etilishi ta'kidlandi.

"So'z oqil dilidan qolur yodgor", deya bejiz aytishmagan. Millat ozodligi va taraqqiyoti uchun kurashgan bobolarimiz safidan o'rin olgan Sidqiy Xondayliqiyning o'tli misralari ham ayni zamonamizning noyob yodgorligidir. Biroq bu noyob merosning hali ko'p qirralari kashf etilgani yo'q.

Anjuman xotimasida qatnashchilar shoirning haligacha aniqlanmagan qabri, tadqiq etilishi kutilayotgan bir qancha dostonlari va she'rlari bor ekanini ham ta'kidladim. Bu kabi adabiy anjumanlar jadidlarimiz hayoti bilan bog'liq ma'rifiy-ma'naviy izlanishlarga turki bo'lsa, ajab emas.

Muxtasar TOJIMAMATOVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

MUASSIS:  
O'zbekiston Respublikasi  
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:  
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Kolopak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.  
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 3850.  
41157 nusxada bosildi.  
Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"Kolopak" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060.  
Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy.  
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Gulichehra Durdiyeva  
Musahhih: Asliddin Abdurazaqov  
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:  
100060, Toshkent shahri,  
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'zA yakuni — 22:00 Topshirildi — 22:55